Differensial ta'limning nazariy-konseptual asoslari.....	667
<i>Rasulova Nozigul Abdivoxid qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatga o'rgatishda kreativ shaxsni shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar	671
<i>Rizoyeva Muslima Raxmonovna</i>	
Информационная компетентность через призму филологии: ключевые факторы формирования ...	679
<i>Хикматов Нодир Назимджанович</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llari	683
<i>Mamatova Zarena Abduljalilovna</i>	
O'zbekiston va Angliyada pedagogik ta'lim tizimining tarixiy asoslari.....	686
<i>Miramatova Laylo Ravshanjon qizi</i>	
Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	690
<i>Nilufar Xalikova Mirkadirovna</i>	
Badmintonchilarda maxsus chaqqonlik tayyorgarligining o'yin faoliyatiga ta'siri	694
<i>Samadova Uktabar Hasanovna</i>	
<i>Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda sinergetik</i>	
yondashuvning o'рни va ahamiyati	698
<i>Yusupova Dilnoza Fayzullayevna</i>	
Pedagogical Essence of Improving Students' Collaborative Skills Through Multi-Vector Approaches	702
<i>Turemuratova Aziza Begibaevna, Otelbayeva Muhayyo Alisher qizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, estetik va ijodiy rivojlanishiga ta'siri	708
<i>Shaymuradov Taxir Zamanovich</i>	
Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni baholash mezonlari: falsafa fanining o'quv jarayoniga integratsiyasi	713
<i>Abdullayev Akmal Nasriddinovich</i>	
Klasterli ta'lim muhitida bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodlari.....	717
<i>Abdurahmonov Maqsad Bekjonovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillari.....	720
<i>Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish: zamonaviy yechimlar va muammolar	724
<i>Abduxalimova Yulduz Normurod qizi</i>	
Maktablarda sun'iy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitish afzalliklari	728
<i>Altmisheva Iroda Mavlonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	731
<i>Ashurov Yusuf Alisher o'g'li</i>	
Bolalikni qayta anglash: mariya montessori pedagogik qarashlarining ilmiy asoslari	735
<i>Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi</i>	
14-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodi	740
<i>Karimboyev Og'abek Qadamboyevich</i>	

O'zbekiston xalqlarining amaliy san'ati va ma'naviy merosini o'rganish: tarixiy va pedagogik jihatlar	744
Kayumov Erkin Kazakbayevich	
Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari	748
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati	751
Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushunishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	



O'ZBEKISTON VA ANGLIYADA PEDAGOGIK TA'LIM TIZIMINING TARIXIY ASOSLARI

Miramatova Laylo Ravshanjon qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti

ORCID: 0009-0008-8677-8978

Ilmiy rahbar: Kusharbayev Djanibek Uralbayevich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston va Angliyada pedagogik ta'lim tizimining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, har ikki davlatda o'qituvchilar tayyorlash tizimining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy omillar yoritiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish jarayonida tarixiy tajribadan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: o'qituvchilar tayyorlash tizimi, tarix, taraqqiyot, davr, ta'lim, maktab, madrasa, O'rta Osiyo, pedagogik kurslar, Angliya, mentorlik, kollej, universitet.

Abstract: This article analyzes the formation and development stages of the teacher education system in Uzbekistan and England from a historical perspective. It also examines the socio-political factors that influenced the establishment of teacher training systems in both countries. The results of the study reveal opportunities for the effective use of historical experience in improving modern systems of teacher education.

Key words: teacher training system, history, development, era, education, school, madrasah, Central Asia, pedagogical courses, England, mentoring, college, university.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы формирования и развития системы педагогического образования в Узбекистане и Англии с исторической точки зрения. Также рассматриваются социально-политические факторы, оказавшие влияние на становление системы подготовки учителей в обеих странах. Результаты исследования раскрывают возможности эффективного использования исторического опыта в совершенствовании современной системы подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова: система подготовки учителей, история, развитие, эпоха, образование, школа, медресе, Центральная Азия, педагогические курсы, Англия, наставничество, колледж, университет.

KIRISH

Ta'lim tizimining zamonaviy bosqichida xalqaro hamkorlik va innovatsion pedagogik yondashuvlarning kengayib borishi davlatlardan ta'lim jarayonini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilishni talab qilmoqda. Bu jarayonda xorijiy pedagogik tajribalarni ilmiy asosda o'rganish, qiyosiy tahlil qilish va milliy ta'lim tizimiga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Xususan, O'zbekistonning TIMSS, PISA, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlaridagi ishtiroki ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, o'quvchilar kompetensiyalarini zamonaviy baholash mezonlari asosida shakllantirish hamda o'qituvchilar tayyorlash tizimini innovatsion yondashuvlar bilan boyitishni talab etmoqda. Bu jarayonlar xorijiy ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish, qiyosiy tahlil qilish va milliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan holda joriy etish zarurligini yanada oshiradi.

Xorijiy tajribalarni qiyosiy o'rganishda komparativistik pedagogikadagi metodologik yondashuvlarga alohida ahamiyat berish zarur. Komparativist olim N. Belkanov qiyosiy pedagogikada tarixiy-falsafiy va tizimli-mantiqiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatadi. Xususan, tarixiy-falsafiy yondashuv tadqiqot obyekti hisoblangan davlatda o'rganilayotgan ta'lim jarayonining tarixiy-madaniy tahlilini ifodalaydi. Ingliz komparativistikasining klassik vakili M. Sendler ham ma'naviy va madaniy omillarni bilmasdan turib milliy ta'lim tizimini taqqoslash mumkin emas, deb hisoblagan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi masalasi pedagogika fanida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston pedagogika maktabida bu masala umumiy pedagogika, ta'lim tarixi hamda pedagog kadrlar tayyorlash nazariyasi doirasida o'rganilgan. Jumladan, B. X. Xodjayev pedagogika nazariyasining zamonaviy yondashuvlarini yoritib, pedagogik ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda shakllanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, pedagog kadrlar tayyorlash tizimining rivoji ta'lim siyosati, ijtimoiy ehtiyoj hamda ilmiy-pedagogik an'analarning uyg'unlashuvi bilan belgilanadi (Xodjayev, 2017).

O'rta Osiyoda ta'lim tizimining tarixiy shakllanishi masalasi bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, G. Izbullayeva O'rta asrlarda maktab va madrasa tizimi ta'limning asosiy shakli bo'lganini qayd etadi. Muallifning ta'kidlashicha, XII–XIII-asrlarda Buxoro, Samarqand, Marv kabi ilmiy markazlarda faoliyat yuritgan madrasalar diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni ham o'qitgan. Bu muassasalar o'z davrida ilmiy muhit shakllanishiga hamda muallimlar tayyorlash jarayoniga muhim ta'sir ko'rsatgan (Izbullayeva, 2018).

Pedagogik ta'limning keyingi tarixiy bosqichlari sovet davri ta'lim tizimi bilan bog'liq holda o'rganilgan. A. Hakimov sovet davrida o'qituvchilarning kundalik hayoti, ularning kasbiy faoliyati hamda pedagog kadrlar tayyorlash tizimidagi o'zgarishlarni tahlil qiladi. Tadqiqotda ushbu davrda pedagog kadrlar tayyorlash tizimi markazlashgan boshqaruv asosida tashkil etilgani, pedagogik institutlar va o'quv yurtlari faoliyati kengaygani ko'rsatib berilgan (Hakimov, 2022).

Pedagogika nazariyasi va ta'lim tarixi masalalari R. A. Mavlonova, B. Ziyomammedov hamda X. Ibragimov va Sh. Abdullayevlarning ilmiy ishlari orqali ham keng yoritilgan. Ushbu olimlar pedagogik ta'lim tizimini rivojlantirishda nazariy bilimlar va amaliy tayyorgarlikning uyg'unligi muhimligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, M. Abdullayeva ta'lim tarixiga oid tadqiqotlarida O'rta Osiyoda pedagogik an'analarning shakllanishi hamda ta'lim muassasalarining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilgan (Abdullayeva, 2013).

Angliyada pedagogik ta'lim tizimining rivojlanishi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham keng o'rganilgan. Anna Wloch Angliyada XIX-asrda o'qituvchilar tayyorlash tizimi ustoz-shogird (pupil-teacher) modeli asosida shakllanganini qayd etadi. Wendy Robinson esa Angliya va Uelsda o'qituvchilar tayyorlash tizimi tarixiy jaryonda maktabga asoslangan amaliy model hamda universitetga asoslangan akademik model o'rtasida rivojlanib kelganini ko'rsatadi. Shuningdek, Z. Zernyakova tadqiqotlarida Buyuk Britaniyada pedagogik ta'lim tizimi zamonaviy davrda xalqaro standartlar, akademik tayyorgarlik hamda pedagogik amaliyot uyg'unligi asosida takomillashib borayotgani ta'kidlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O'zbekiston va Angliyada o'qituvchilar tayyorlash tizimi tarixini tahlil qilish uchun tarixiy metod, qiyoslash, tahlil hamda statistik metodlardan foydalanildi. Tarixiy metod yordamida har ikkala davlatning o'qituvchilar tayyorlash tizimi rivojlanishi xronologik ketma-ketlikda ko'rib chiqildi, tahlil metodi yordamida esa har bir rivojlanish davrining mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi hamda ta'siri o'rganildi. Qiyosiy metod esa mazkur jarayonlardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida yangi bosqichga qadam qo'ydi. Yangi davr, o'z navbatida, Respublikamizda o'qituvchilar tayyorlash tizimiga ham aniq va qat'iy talablar qo'ymoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son¹ Farmonida pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish aniq maqsad etib belgilab qo'yilgan. O'qituvchilar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirishda uning tarixini tahlil qilish, o'tgan davrlardagi yutuqlar, muvaffaqiyatlar hamda xatoliklarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, insoniyat ibtidoiy jamoa bo'lib yashagan davrda o'zining ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini kundalik mehnat jarayonida qondirgan. Bu davrdagi ta'lim-tarbiya faqat oilada amalga oshirilgan bir bosqichli tizimdan iborat bo'lgan. Keyinchalik inson ongi va tafakkuri yuksala boshladi, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiy etdi, insonlar yirik qabilalarga birlasha boshladilar. Ularda yerni o'lchash, kun sanash, vaqtni belgilash, suv toshqinlarining oldini olish, qabilani boshqarish kabi yangi bilimlarga ehtiyoj paydo bo'la boshlagan. Jamiyatda mehnat taqsimoti vujudga kelgach, to'plangan bilimlarni keyingi avlodga o'rgatuvchi kishilarga ham ehtiyoj paydo bo'lgan. Natijada yozuv va uni o'rgatuvchi muallimlik kasbi vujudga kelgan.

VII–XIV-asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyo hududida, xususan, Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishopur kabi shaharlarda bir nechta ta'lim muassasalari, jumladan, maktablar, madrasalar, qorixonalar mavjud bo'lgan. O'quvchilarga diniy va dunyoviy bilim asoslarini o'rgatish, ularda go'zal insoniy fazilatlarni shakl-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>

lantirish bu davrdagi ta'lim va tarbiya jarayonining eng asosiy vazifasi edi. Maktablar boshlang'ich ta'lim muassasalari hisoblangan bo'lib, undagi ta'lim tizimi bir qancha bosqichli tarzda puxta tashkil etilgan. Masalan, faqatgina alifboni o'rganishga 3–4 oydan 1 yilgacha vaqt sarflangan. Maktablarda darslarni mullalar olib borishgan.

Madrasalar yuqori bosqichdagi ta'lim muassasalari hisoblangan. Ularning vazifasi maktablar uchun mullalarni tayyorlash, davlat idoralari va boshqaruv mahkamalariga qozilarni tayyorlash, shariat ulamolarini yetishtirishdan iborat bo'lgan. Madrasada o'qish muddati talabalar iqtidoriga qarab o'rtacha 7–12 yil davom etgan. Madrasalarda talabalar uchun ta'lim dasturlari uch bosqichga ajratilgan: birinchi, quyi bosqich (adno yoki iptidoiy), ikkinchi, o'rta bosqich (avsat yoki rushdiy) va uchinchi, yuqori, oliy bosqich (a'lo yoki iqdadiy). Asosiy ta'lim metodlari ma'ruza hamda bahs-munozaradan iborat bo'lgan.

XIV–XVI-asrlarda O'rta Osiyoda Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida ta'lim va tarbiya yanada yuksaldi. Bu davrda madrasa oliy ma'lumot beruvchi ta'lim maskani hisoblangan. Samarqand shahrining o'zida 17 ta madrasa faoliyat yuritgan. Bu madrasalar muayyan darajada ixtisoslashgan edi. Masalan, boshqaruv kadrlarini tayyorlash Muhammad Sulton madrasasida, diniy muassasalar uchun kadrlar tayyorlash Mavlono Qutbiddin Sadr madrasasida, umumiy mutaxassislar, ya'ni ziyoli, imom va maktab o'qituvchilarini tayyorlash esa Idigu Temur hamda Saroymulkxonim madrasalarida amalga oshirilgan. Biroq barcha madrasalarda Qur'on, hadis va fiqh fanlari o'rganilgan. Madrasalarda darslar arab, fors va turkiy (o'zbek) tillarida olib borilgan.

Ma'lumki, XIX-asrning ikkinchi yarmida Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilgan. Bu jarayon ta'lim sohasiga, xususan, pedagoglar tayyorlash tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ko'plab rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi hamda savodsizlikni tugatishga qaratilgan ishlarning kengayishi malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'ldi. Bu davrgacha Turkistonda o'qituvchilar madrasalarda tayyorlangan bo'lsa, 1879-yilga kelib bu jarayon Turkiston o'qituvchilar seminariyasi tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur seminariya Toshkent shahrida tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi rus-tuzem maktablari uchun pedagoglar tayyorlashdan iborat bo'lgan. Bunda asosan Turkistonga ko'chib kelgan ruslarning farzandlari o'qigan, mahalliy aholi vakillaridan bo'lgan o'quvchilar soni esa juda ozchilikni tashkil etgan. Masalan, 1886-yilda ta'lim olgan o'quvchilardan atigi 9 nafari mahalliy millat vakillariga mansub edi.

O'qituvchilar yetishmasligi muammosini hal qilish maqsadida qisqa pedagogik kurslar tashkil etildi. 1917-yilda Qo'qon, Andijon, Toshkent va Samarqand shaharlarida o'qituvchilar tayyorlaydigan qisqa pedagogik kurslar ochilgan. Bu kurslarda asosan individual-guruhlab o'qitish va lotin orfografiyasiga alohida e'tibor berilgan. Bu yo'l orqali sovet hukumati an'anaviy arab yozuvidagi ta'lim tizimini lotin yozuviga o'zgartirish hamda yangicha dunyoqarashga ega o'qituvchilarni tayyorlashni maqsad qilgan. Bunday kurslarni Maorif xalq komissarligi qoshidagi maxsus komissiya nazorat qilgan. Qisqa pedagogik kurslarda asosan yosh ishchi va dehqonlar o'qitilgan. Shuning uchun mashg'ulotlarning asosiy maqsadi mehnatkashlar ommasini tarbiyalash, ularga ta'lim berish hamda ularni kommunizm qurilishiga tayyorlash edi.

1920-yilning sentabrigacha qisqa muddatli pedagogik kurslarda mahalliy aholi vakillaridan 1140 nafar o'qituvchi tayyorlangan va 1522 nafar kishi qayta o'qitilgan. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida 1922–1923-yillarda 31 nafar o'qituvchi ishlagan bo'lsa, 1924–1925-yillarga kelib ularning soni 143 nafarga yetgan. Shu yillarda O'zbekistonda o'qituvchilarning 80 foizi qisqa muddatli kurslarda tayyorlangan (M. Turayeva, 2023). Bu kurslar odatda 4–5 oy davom etgan. Biroq qisqa muddatda ko'p o'qituvchi tayyorlash imkonini bergan bo'lsa-da, ularning sifat darajasi yetarli darajada yuqori bo'lmagan.

XX-asrning 20-yillariga kelib o'rta maxsus va oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan o'quv yurtlari paydo bo'la boshladi. 1920–1921-yillarda oliy tipdagi o'quv yurtlari – o'zbek erlar dorulmuallimi, o'zbek xotin-qizlar dorulmuallimi hamda boshqa mahalliy millatlar uchun jami 7 ta dorulmuallim faoliyat yuritgan. Dorulmuallimida o'qish davomiyligi 2 yil bo'lib, unda sirtqi ta'lim shakli ham mavjud bo'lgan.

1920-yilda Toshkent shahrida Temiryazev nomidagi Oliy pedagogika o'quv yurti hamda Xalq maorifi instituti tashkil etilgan. 1924-yilga kelib O'rta Osiyo davlat universiteti, 7 ta dorulmuallimin va 6 ta pedagogik o'quv yurtlarida jami 1775 nafar o'quvchi tahsil olgan. 1925-yilda O'zbekiston qishloqlarida 2748 nafar muallim faoliyat yuritgan (B. X. Xodjayev, 2017).

Keyinchalik pedagogik o'quv yurtlariga texnikumlar nomi berilgan. 1927-yil yanvar oyida Samarqandda Oliy pedagogika instituti ochilgan. 1933-yilda ushbu institut bazasida Samarqandda O'zbekiston davlat universiteti tashkil etilgan. Shunday qilib, 1928-yilda O'zbekiston hududida 19 ta pedagogika texnikumi va 1 ta pedagogika oliy o'quv yurti faoliyat ko'rsatgan.

1985–1990-yillarda respublikada 14 ta pedagogika instituti va 38 ta o'rta maxsus bilim yurti faoliyat yuritgan hamda bu muassasalarda yiliga o'rtacha 17 ming nafar yosh pedagog tayyorlangan.

Angliyada o'qituvchilar tayyorlash tarixiga oid “chayqaluvchi mayatnik” metaforasi ko'p uchraydi. Bu o'xshatish o'qituvchilar tayyorlash tarixida quyidagi ikki asosiy model navbatma-navbat ustunlik qilganini anglatadi:

1. Ustoz-shogird (pupil-teacher) tizimi orqali pedagoglar tayyorlash.
2. Kollejlar va universitetlarda pedagoglar tayyorlash.



Ustoz-shogird (pupil-teacher) tizimi maktabga asoslangan model bo'lib, u avval mavjud bo'lgan monitoring tizimini (monitorial system) isloh qilish natijasida paydo bo'lgan. Monitoring usuli Joseph Lancaster va Andrew Bell tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, monitorlar – maktabning kattaroq va bilimdon o'quvchilari kichik o'quvchilarga ta'lim berish uchun jalb qilingan. Bu tizim o'qituvchilar yetishmovchiligi muammosiga o'z davrida samarali yechim bo'la olgan.

Ustoz-shogird tizimi maktablarda o'qituvchi tayyorlashning dastlabki shakli bo'lib, 1846-yilda Key Shattlvord tomonidan rasmiy tartibga solish taklifi berilgan. Tizimning maqsadi boshlang'ich maktablarda ta'lim sifatini oshirish hamda pedagog kollejlari malakali nomzodlarni jalb qilishdan iborat edi.

Bu tizimda o'quvchi 13 yoshdan boshlab 5 yil davomida maktab boshqaruvchisi huzurida shogird sifatida faoliyat olib borgan. Chunki o'quvchilar 13 yoshda maktabni bitirishgan, pedagog tayyorlovchi kollejlarga qabul esa 18 yoshdan boshlangan. Shu tariqa bu tizim maktab va kollej o'rtasidagi 5 yillik davrni to'ldirgan. Shogirdlar haftasiga 5 kun maktabdagi darslardan oldin yoki keyin 1,5 soat davomida nazariy ta'lim olishgan va ularning pedagogik faoliyati uchun haq to'langan.

1881-yilda Londonda tashkil etilgan markaz Angliya o'qituvchilar tayyorlash tizimining yana bir muhim rivojlanish bosqichi bo'ldi.

XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida Angliya hukumat komissiyasi o'qituvchilarni universitetlarda tayyorlash hamda maxsus pedagogika fakultetlarini tashkil etishni taklif etdi. 1890-yilda hukumat universitetlar qoshidagi kunduzgi pedagogik tayyorlov kollejlari faoliyatini tartibga soluvchi nizomni ishlab chiqdi. Bu kollejlarda talabalar kasbiy tayyorgarlik bilan birga universitet ma'ruzalarida qatnashish va akademik daraja olish imkoniyatiga ega bo'lgan.

1902-yilda qabul qilingan Ta'lim aktiga ko'ra Mahalliy Ta'lim Hokimiyatlari (Local Education Authorities) o'qituvchilar tayyorlash tizimiga mas'ul etib belgilangan. Shu tariqa pedagoglar tayyorlash jarayoni tobora kollej va universitetlarga yo'naltirildi. XX-asr boshlarida kollejga asoslangan model ustunlik qilgan va 1980-yillarning oxirigacha yetakchi pozitsiyani saqlab qolgan. 1980–1990-yillarda esa tizimda muhim o'zgarishlar amalga oshirildi va Angliyada o'qituvchilar tayyorlash tizimi markazlashgan, davlat tomonidan nazorat qilinadigan sohaga aylandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston va Angliyada o'qituvchilar tayyorlash tizimining tarixiy asoslarini komparativistik tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikki mamlakatda pedagog kadrlar tayyorlash tizimi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlari ta'sirida shakllangan. O'rta Osiyoda dastlab ta'lim tizimi maktab va madrasalar asosida rivojlangan bo'lib, bu muassasalar diniy hamda dunyoviy bilimlarni berish bilan birga jamiyat uchun zarur bo'lgan muallimlar va ilm ahlini tayyorlash markazi vazifasini bajargan. Angliyada esa o'qituvchilar tayyorlash dastlab ustoz-shogird (pupil-teacher) tizimi asosida, ya'ni bevosita maktab amaliyoti orqali amalga oshirilgan.

Shuningdek, Angliyada o'qituvchilar tayyorlash tizimi tarix davomida maktabga asoslangan amaliy model va universitetga asoslangan akademik model o'rtasida rivojlanib kelgan bo'lsa, O'zbekistonda ta'lim tizimi turli tarixiy bosqichlarda diniy ta'lim muassasalari, keyinchalik esa davlat tomonidan boshqariladigan pedagogik o'quv yurtlari orqali shakllangan. Har ikki mamlakat tajribasi o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar va amaliy tayyorgarlikni uyg'unlashtirish, shuningdek, ta'lim tizimini jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirib borish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. X. Xodjajev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2017. "Sano-standart" nashriyoti. B. 238.
2. Izbullayeva G. "XII–XIII asrlarda ta'lim tizimi" maqola. Pedagogik mahorat, 2018. B. 41–44.
3. Hakimov A. "Sovet davri o'qituvchilarining kundalik hayoti". Ilmiy axborot, 2022. B. 316.
4. Mavlonova R. A. Umumiy pedagogika darslik. Toshkent, "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2018. B. 345–390.
5. B. Ziyomammedov. Pedagogika o'quv qo'llanma. Toshkent, 2006. B. 5–13.
6. X. Ibragimov, Sh. Abdullayev. Pedagogika nazariyasi darslik. Toshkent, 2008. B. 7–21.
7. M. Abdullayeva. Ta'lim tarixi o'quv qo'llanma. Toshkent, 2013. "Muharrir" nashriyoti. B. 81.
8. M. Turayeva. "History of the Teacher Training Process in South of Uzbekistan". The Role of Science and Innovation in the Modern World, 2023, London, United Kingdom.
9. Anna Wloch. "The Development of Teacher's Education in England in the 19th Century" (2019).
10. Wendy Robinson. "Teacher Training in England and Wales: Past, Present and Future Perspectives" (2006).
11. Z. Zernyakova, I. "Modern Models of Pedagogical Education of Great Britain, Canada, and the USA". Science and Education: A New Dimensions. Pedagogy and Psychology, 2018, 11.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.